

«Omadli o‘tkazma» promo-aksiyasida ishtirok etish uchun ommaviy oferta

Mazkur Ommaviy oferta «Garant bank» Aksiyadorlik jamiyati hamda «Sokolovskiy» Tijorat banki Aksiyadorlik jamiyati tomonidan tashkil etilgan «Omadli o‘tkazma» promo-aksiyasini o‘tkazish tartibi, shartlari va muddatlarini belgilaydi.

Atamalar va ta’riflar

Bank – «Garant bank» Aksiyadorlik jamiyati, «Omadli o‘tkazma» promo-aksiyasining hamkor tashkilotchisi.

Pul o‘tkazmasi tizimi – «Sokolovskiy» Tijorat banki Aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda - Astrasend), «Omadli o‘tkazma» promo-aksiyasining hamkor tashkilotchisi.

Ishtirokchi – Omnipay ilovasi orqali o‘tkazilgan va «Garant bank» AJ kassasidan olingan xalqaro pul o‘tkazmasining 18 yoshga to‘lgan oluvchisi.

G‘olib – Bankning «Omadli o‘tkazma» promo-aksiyasining 31 nafar ishtirokchisi bo‘lib, ular maxsus Randomizer dasturi yoki shunga o‘xhash dasturlar orqali har kuni aniqlanadi.

Sovrin – «Garant bank» AJ tomonidan hisobraqamida chiqarilgan individual dizaynli bank kartasi, unga soliqlarni chiqarganda 1 000 000 (bir million) so‘m miqdoridagi summa joylashtirilgan.

Xalqaro pul o‘tkazmasi — bu Rossiya Federatsiyasidan O‘zbekiston Respublikasiga Omnipay mobil ilovasi orqali pul o‘tkazish imkonini beradigan operatsiya.

Shaxsni tasdiqllovchi hujjat — pasport, harbiy xizmatchilar uchun harbiy chipta, ID-karta, yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi, xorijiy pasport.

Shaxsga doir ma’lumotlar — muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo‘lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi, elektron tarzda, qog‘ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot.

1. Umumiyligida

1.1. Ushbu qoidalar «Omadli o‘tkazma» promo-aksiyasini (keyingi o‘rinlarda – promo-aksiya) o‘tkazish tartibi, shartlari va muddatlarini belgilaydi.

1.2. Aksiya o‘tkaziladigan hudud: O‘zbekiston Respublikasi, «Garant bank» AJ bank tizimida.

1.3. Aksiya o‘tkazish muddatlari: 2025 yil 18 avgustdan 17 sentyabrgacha (shu kuni ham kiritilgan holda).

2. Aksiya ishtirokchilari

2.1. 18 yoshga to‘lgan va Omnipay mobil ilovasi orqali pul o‘tkazmalarini amalgalashirgan har qanday jismoniy shaxs aksiya ishtirokchisi bo‘lishi mumkin.

2.2. Aksiyada Bankning cassalari orqali Omnipay mobil ilovasi yordamida yuborilgan pul o‘tkazmasini qabul qilgan barcha mijozlar ishtirok etishi mumkin.

2.3 Aksiyada Bank xodimlari va ularning yaqin qarindoshlarining ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.4. Aksiyada ishtirok etish aksiya ishtirokchilarining ushbu Qoidalar bilan to‘liq roziligini anglatadi.

2.5. Aksiya ishtirokchisi ushbu Qoidalarda belgilangan talablarga riosa etmagan taqdirda, aksiyada keyinchalik ishtirok etish va sovrin qo‘lga kiritish huquqidani mahrum qilinadi. Sovrinni qo‘lga kiritish uchun aksiya ishtirokchilari ushbu Qoidalarga muvofiq ulardan talab qilinadigan barcha harakatlarni aksiya o‘tkazish muddati davomida, sovrinni qabul qilganlikni tasdiqlovchi hujjalarga imzo qo‘yish paytiga qadar bajarishlari shart.

2.6. Ushbu ofertani aksept qilish orqali Ishtirokchi quyidagilarni tasdiqlagan hisoblanadi:

- ushbu Ofertani to‘liq va har tomonlama o‘rganganligini, unga rozi va uning shartlariga riosa etish majburiyatini o‘z zimmasiga olganini;
- Ofertaning mazmuni va Ishtirokchi uchun ehtimol qilingan huquqiy oqibatlar unga tushunarli ekanini;
- huquqiy/muomalaga layoqatli ekanini hamda Bank bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishga bo‘lgan o‘zining qonuniy huquqini tasdiqlashini.

3. Aksiyada ishtirok etish shartlari

3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Bank cassalaridan Omnipay ilovasi orqali yuborilgan pul o‘tkazmasini olish lozim.

4. Sovrin fondi

4.1. Sovrin: soliqlarni chiqarganda 1 000 000 (bir million) so‘m miqdoridagi summa joylashtirilgan individual dizaynli bank kartasi.

- 4.2. G'oliblar sovrinni almashtirib berishni talab qilish huquqiga ega emas.
- 4.3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq, Bank jismoniy shaxsdan ushbu aksiya bo'yicha sovrin olish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan barcha tegishli soliqlar va majburiy to'lovlarni davlat byudjetiga ushlab qolish majburiyatini oladi.
- 4.4. Sovrinni olish huquqini uchinchi shaxslarga o'tkazish taqiqanadi.

5. Aksiyani o'tkazish tartibi va sovrinlarni o'ynash tartib-taomili

- 5.1. Sovrinlar har kuni Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi Reels orqali o'ynaladi. Aksiya ishtirokchilari ro'yxati har kuni **Astrasend** tomonidan Bankka yuboriladi.
- 5.2. Ushbu aksiya bo'yicha g'oliblar maxsus Randomizer dasturi yoki shunga o'xhash tasodifiy sonlarni generatsiya qiluvchi dasturlar orqali aniqlanadi.
- 5.3. Xalqaro pul o'tkazmasini qabul qiluvchilar orasidagi o'zin dam olish kunlarida (agar bank dam olish kunlari ham faoliyat yuritsa) keyingi ish kunida o'tkaziladi va o'sha kuni bir nechta g'oliblar aniqlanishi mumkin.
- 5.4. G'olib mazkur aksiya doirasida ikki yoki undan ortiq sovrin olish huquqiga ega emas.
- 5.5. Bank, bahsli holatlar yuzaga kelgan yoki sovrinni topshirish holatlaridan tashqari, aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokalaralarga kirishmaslik yoki boshqa shaklda aloqa qilmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 5.6. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchilarning ismlari, familiyalari, fotosuratlari va ular haqidagi boshqa materiallar Bank tomonidan reklama maqsadlarida ularga hech qanday haq to'lanmasdan ishlatilishiga rozilik bergenliklarini anglatadi.
- 5.7. Bank o'z ixtiyoriga ko'ra ushbu Qoidalarga istalgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi, bunda o'zgarishlar kuchga kirishidan 10 (o'n) kun oldin www.garantbank.uz saytida e'lon joylashtiriladi. Bank sovrinlar ro'yxatini va ularning miqdorini o'zgartirish yoki kengaytirish, shuningdek, o'zin davrini o'zgartirish huquqiga ega. Bank ishtirokchida aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq ravishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar, xarajat va boshqa turdag'i chiqimlarni qoplamaydi va tovon to'lamaydi.
- 5.8. Bank sovrindan foydalanish davri mobaynida uning egasining sog'lig'iga (hayotiga), mol-mulkiga, shuningdek, uchinchi shaxslarning sog'lig'iga yoki hayotiga yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.
- 5.9. Ushbu aksiyani o'tkazish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar Bank va Ishtirokchi o'rtasida o'zaro hurmat va anglashuvga

asoslangan muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. **Kyelishuvga** erishilmagan taqdirda, nizo Bank joylashgan hududdagi sud tartibida sudda ko‘rib chiqiladi.

5.10. Bank ijtimoiy tarmoqlarda maxsus Randomizer dasturi yoki tasodifiy sonlar bilan ishlaydigan shunga o‘xhash dasturlar orqali 31 nafar asosiy g‘olibni aniqlaydi va qo‘srimcha ravishda 1 (bir) nafar ishtirokchini asosiy g‘oliblar sovrindan voz kechgan yoki mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan muddatda sovrinni olmagan taqdirda zaxira nomzod sifatida belgilaydi.

5.11. Asosiy g‘olib sovrindan voz kechgan yoki uni belgilangan muddatda olmagan taqdirda, sovrin maxsus Randomizer dasturi yoki shunga o‘xhash dasturlar orqali birinchi bo‘lib aniqlangan zaxira nomzodiga o‘tadi. Agar birinchi zaxira nomzodi ham sovrindan voz kechsa yoki uni muddatda olmasa, sovrin ikkinchi zaxira nomzodiga topshiriladi.

5.12. Barcha nomzodlar sovrindan voz kechgan yoki uni belgilangan muddatda olmagan taqdirda, Bank Komissiyasi qaroriga asosan ushbu bo‘limning tegishli bandlarida nazarda tutilgan tartibda g‘oliblar Muqobil tarzda aniqlanadi.

5.13. Agar g‘oliblarni Muqobil tarzda aniqlash natijasi bo‘yicha ham sovrindan voz kechish yoki uni belgilangan muddatda olmaslik holati yuzaga kelsa, Bank sovrindan o‘z ixtiyoriga ko‘ra foydalanish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

5.14. O‘tkazilgan aksiya natijalari va g‘oliblarni aniqlash tartibi bo‘yicha Bank Komissiyasi tomonidan bayonnomma rasmiylashtiriladi va Bank Komissiyasi a’zolari tomonidan imzolanadi.

5.15. G‘oliblarning ismlari Bankning rasmiy korporativ veb-saytida hamda ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilinadi.

5.16. Sovrinni qo‘lga kiritgan g‘olibga Bank ijtimoiy tarmoqlarda xabarnoma yuboradi.

5.17. Ishtirokchi aksiya shartlariga rioya etmagan taqdirda kelib chiqadigan oqibatlar uchun Bank javobgar hisoblanmaydi.

5.18. Bank ushbu Ommaviy oferta shartlarini tegishlicha bajarmaganlik uchun, agar bunday bajarmaslik Bank nazorati doirasidan tashqaridagi sabablarga ko‘ra yuzaga kelgan bo‘lsa, javobgar emas.

6. Sovrinlarni olish tartibi va muddatlari

6.1. G‘olib, Bank sovrinni yutgani haqida uni xabardor qilgan sanadan keyin 10 (o‘n) ish kuni mobaynida Sovrinni olish uchun Bankka kelishi kerak.

- 6.2. Sovrinni G‘olibga topshirish G‘olib va Bankning vakolatli vakili tomonidan imzolangan Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.
- 6.3. Bankning sovrinni G‘olibga topshirish majburiyatlari sovrin ishtirokchiga topshirilgan va Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.
- 6.4. Sovringa bo‘lgan mulk huquqi g‘olibga sovrin topshirilgan paytdan boshlab o‘tadi.
- 6.5. Sovrin topshirish keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida tantanali ochiq marosimi sifatida tashkil etilishi mumkin.

7. Aksiya ishtirokchilarini aksiyani o‘tkazish shartlari, uni to‘xtatish yoki muddatidan oldin tugatish tartibi haqida xabardor qilish tartibi

- 7.1. Aksiya ishtirokchilarini aksiyaning shartlari va o‘tkazish tartibi haqida xabardor qilish Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasida reklama postlarini joylashtirish orqali amalga oshiriladi.
- 7.2. Ushbu aksiya haqidagi batafsil ma’lumot hamda Aksiya Qoidalari Bankning rasmiy korporativ veb-saytida: www.garantbank.uz’ «Aksiyalar» bo‘limida joylashtiriladi.
- 7.3. Aksiya haqidagi batafsil ma’lumotni Bankning ishonch telefoni orqali: (+998 71) 203-02-42, hamda qisqa raqam 1326 orqali ham olish mumkin.
- 7.4. Aksiya muddatidan oldin to‘xtatilgan, uning o‘tkazish muddatlari uzaytirilgan yoki Qoidalariга o‘zgarishlar kiritilgan taqdirda tegishli ma’lumot Bankning rasmiy korporativ veb-sayti www.garantbank.uz’ning «Aksiyalar» bo‘limida joylashtiriladi.
- 7.5. Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiq, Ishtirokchi Bankka u o‘z faoliyatini yuritishi, mazkur qoidalar shartlarini bajarishi uchun, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi zid kelmaydigan boshqa maqsadlarda o‘zining har qanday shaxsga doir ma’lumotlarini qayta ishslash va foydalanishga muddatsiz rozilagini beradi.